



OLIV TA'LIMDA INKLYUZIV VA RAQAMLI TA'LIM MUHITINI INTEGRATSIYALASHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Ahmadova Gulbodom Komiljon qizi

Buxoro davlat texnika universiteti tyutori

Annotatsiya. Mazkur tezisda oliy ta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan talabalar uchun inklyuziv ta'lim muhitini raqamli va assistiv texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan. Unda Universal Ta'lim Dizayni tamoyillarini joriy etish, o'quv materiallarini turli formatlarda taqdim etish, moslashuvchan baholash usullaridan foydalanish hamda assistiv texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ekran o'quvchilari, avtomatlashtirilgan subtitrlar, ovozni matnga aylantirish vositalari, LMS platformalari va gibrid ta'limning inklyuzivlikni ta'minlashdagi ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijasida professor-o'qituvchilarning raqamli-inklyuziv kompetentligini oshirish va moslashuvchan ta'lim metodlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, raqamli texnologiyalar, oliy ta'lim, assistiv texnologiyalar, Universal Ta'lim Dizayni (UDL), adaptiv ta'lim, raqamli kompetentlik.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida inklyuzivlikni ta'minlash — ya'ni imkoniyati cheklangan va alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan talabalar uchun teng, sifatli hamda to'siqsiz ta'lim sharoitlarini yaratish ustuvor vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasida barcha fuqarolar uchun oliy ta'limning ommabopligi va ochiqligini ta'minlash alohida belgilangan.



An'anaviy inklyuziv ta'lim muhiti ko'pincha faqat jismoniy infratuzilmani (panduslar, maxsus xonalar) yaxshilash bilan cheklanib qolmoqda. Vaholanki, zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari inklyuziv ta'lim muhitini pedagogik-metodik hamda sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Hozirgi kunda Oliy ta'lim muassasalarida raqamli hamda assistiv texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalangan holda inklyuziv ta'lim muhitini takomillashtirishning samarali pedagogik metodikasini ishlab chiqish va ilmiy asoslash dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda.

Tadqiqot metodlari. Oliy ta'limda inklyuziv ta'lim muhitini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish quyidagi uchta asosiy ustunga tayanadi:

1. *Universal Ta'lim Dizayni tamoyillarini joriy etish* - o'quv materiallarini ko'p mezonli taqdim etish. Ya'ni bunda matn, audio, video, subtitrlar va audio-tavsifli multimedia kontentlari muhim ahamiyatga ega. Bulardan kelib chiqqan holda talabalarning bilimini baholashda moslashuvchan va muqobil usullardan foydalanish lozim.
2. *Assistiv va moslashuvchan (adaptiv) raqamli vositalar integratsiyasi-talabalarning qanday imkoniyati cheklanganligidan kelib chiqqan holda ular uchun yordamchi dasturlar:*

* Eshitishida nuqsoni bor talabalar uchun: Real vaqt rejimida ovozni matnga aylantiruvchi (STT — Speech to Text) va avtomatlashtirilgan subtitrlar dasturlari;

* Ko'rishida nuqsoni bor talabalar uchun: Ekran o'quvchilar (Screen Readers: NVDA, JAWS), Brayl elektron displeylari va audio-darsliklar bazasi;

* Harakatlanishida nuqsoni bor talabalar uchun: Masofaviy LMS (Moodle, Hemis) platformalari va interaktiv gibrid ta'lim shakllari.

3. *Pedagoglarning raqamli-inklyuziv kompetentligini oshirish:*

* Oliy Ta'lim Muassasalari professor-o'qituvchilarini inklyuziv raqamli kontent tayyorlash (masalan, to'siqsiz PDF/Word hujjatlar yaratish, videolarga subtitrlar qo'shish) va adaptiv o'qitish metodikasi bo'yicha maxsus modullar asosida tayyorlash. Buning uchun qo'shimcha malaka oshirish kurslari tashkil etish, bu borada tajribali mutaxassislarni jalb qilish muhim omil hisoblanadi.

Kutilayotgan natijalar va tahlil. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan talabalarning o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi sezilarli darajada oshadi va akademik ko'rsatkichlari yaxshilanadi. Oliy Ta'lim Muassasalarda barcha talabalar uchun teng va moslashuvchan raqamli ta'lim muhiti shakllanadi. Professor-o'qituvchilar uchun inklyuziv raqamli kontent va moslashuvchan dars uslublarini yaratish bo'yicha amaliy metodik qo'llanma ishlab chiqiladi.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar oliy ta'limda inklyuziv muhitni yaratishning shunchaki qo'shimcha vositasi emas, balki ta'lim sifatini oshiruvchi, har bir alohida ta'lim ehtiyojiga ega talabalarda mavjud individual salohiyatini yuzaga chiqarish, ulardagi iqtidorni kuchaytirish hamda egallagan bilimlaridan foydalanish uchun muhim omildir. Taklif etilayotgan metodikani Oliy Ta'lim Muassasalari amaliyotiga joriy etish mamlakatimizda oliy ta'limning ommabopligi va tengligini yangi bosqichga ko'taradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.** O'RQ-637-son, 23.09.2020.
2. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori,** 13.10.2020.
3. **O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni.** O'RQ-641-son, 15.10.2020
4. **Shomaxmudova, R. Sh.** Maxsus va inklyuziv ta'lim: xalqaro va milliy tajribalar. Toshkent: Chashma Print, 2011.
5. **Qaxarova D.S.** Inklyuziv ta'lim texnologiyasi. O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent, 2014.